

## 4.2. AMALIY MASHG'ULOT. REFLEKTOR YOYINI MODELLASHTIRISH

**Maqsad:** reflektor yoyining qismlarini modellashtirish orqali uning tuzilishini o'rganish.

Refleks tashqi va ichki ta'sirlarga organizmning markaziy nerv sistemasi ishtirokidagi javob reaksiyasidan iborat. Organizmning oddiy harakatlaridan tortib eng murakkab hayotiy jarayonlargacha reflekslar tufayli amalga oshadi.

Refleks hosil bo'lishida nerv qo'zg'alishlari o'tadigan yo'l **refleks yoyi** deyiladi.

**Bizga kerak:** orqa miyaning tuzilishi, refleksning hosil bo'lishini ko'rsatuvchi rasmi jadvallar, plastilin, rangli bo'yoqlar, chizg'ich, plastmassa pichoqcha, qalam, oq qog'oz, qaychi, egiluvchan ingichka sim, mixcha, yelim, 2 dona po'kak.

**Xavfsizlik qoidalari:**   

1. Plastmassa pichoqcha, qaychi, mix va egiluvchan sim bilan ishlaganda ehtiyyot bo'ling.
2. Rangli bo'yoqlardan foydalanganda ust-boshingizga rang tegmasin.


**Ishni bajarish tartibi:**



1. Oq qog'ozni olib, qaychi bilan orqa miyaning ko'nda lang kesimini tayyorlang.



2. Po'kakni oling va uning ustiga orqa miyaning tasviri tushirilgan qog'ozni qo'ying. So'ngra po'kakni qirqib oling.



3. Orqa miyadan chiqadigan nerv qismlarini qirqib chiqing.

4. Orqa miyaning kapalaksimon qismini qaychi yordamida qirqib oling. Keyin po'kak ustiga qo'yib chizing. Po'kak ustiga chizilgan shaklni qirqib olib, o'rtasidan kichik teshikcha hosil qiling.



5. Kapalaksimon qismni po'kakdan yasalgan orqa miya qismining ustiga yelim bilan joylashtiring.



6. Teri va ishchi organ (muskul)ni po'kakdan tayyorlab oling.







7. Tayyorlangan qismlarni bir-biriga yaqin qilib joylashtiring. Shundan so'ng bu qismlarga rangli bo'yoqlar bilan ishlov bering.



8. Teri qavatlarini rasmdagidek bo'yang va unga mixchani kirkazib qo'ying.




9. 10 cm keladigan ikki dona egiluvchan simni oling. Unga qog'ozni alohida-alohida qilib o'rang. Ulardan birini qizil, ikkinchisini ko'k bo'yoq yordamida bo'yang.



10. Hosil bo'lgan qismlarni yelimlab joylashtiring.

11. Plastilindan foydalanib neyron qismlarini hosil qiling.



**Muhokama qiling va xulosa chiqaring.**

12. Reflektor yoyi modeli qismlarini yozing.